



UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI QAYTA BAHOLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Gozieva Mokhira

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-6758-8007

moxira.gozieva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola buxgalteriya hisobi sohasida uzoq muddatli aktivlarning nazariy masalalari tahlil qiligan. Turli yondashuvlar, tartibga soluvchi me'yoriy xujjatlardagi bunday aktivlar, korxonalar tomonidan ulush, bonuslar yoki uzoq muddatli ekspluatatsiya uchun sotib olingan resurslar ko'rinishida keltiriladi. Shuningdek, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hamda investitsion mulk sifatida e'tirof etiluvchi aktivlar kelgusida kapitalni joylashtirishning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, uzoq muddatli aktivlarning turkumlanishi va xususiyatlarini qayta ko'rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli aktivlar, tamoyillar, rivojlantirish tendensiyalari, xarajatlar, royalti, huquq, noaniqlik, amaliyot, munosabat, investitsiya kiritish, investitsion mulk.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПЕРЕОЦЕНКИ ДОЛГОСРОЧНЫХ АКТИВОВ

Гозиева Мохира

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические вопросы долгосрочных активов в сфере бухгалтерского учета. В различных подходах такие активы в нормативно-правовых документах представляются как ресурсы, приобретенные предприятиями за акции, бонусы или долгосрочную эксплуатацию. Также долгосрочные финансовые инвестиции и активы, признанные инвестиционной собственностью, рассматриваются как одно из эффективных направлений распределения капитала в будущем. Поэтому актуально пересмотреть классификацию и характеристики долгосрочных активов.

Ключевые слова: долгосрочные активы, принципы, тенденции развития, издержки, роялти, право, неопределенность, практика, отношение, инвестиции, инвестиционная собственность.

IMPROVING THE PROCESS OF REVALUATION OF LONG-TERM ASSETS

Gozieva Mokhira

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the theoretical issues of long-term assets in the field of accounting. In various approaches, such assets in regulatory documents are presented as resources acquired by enterprises for shares, bonuses or long-term exploitation. Also, long-term financial investments and assets recognized as investment property are considered one of the effective directions of capital allocation in the future. Therefore, it is urgent to reconsider the classification and characteristics of long-term assets.

Keywords: long-term assets, principles, development trends, costs, royalties, law, uncertainty, practice, attitude, investment, investment property.

Kirish.

Ma'lumki, uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobi subyektlarining ishlab chiqarish salohiyati va strategik barqarorligini ta'minlovchi moliyaviy-iqtisodiy resurslar hisoblanadi. Ularni uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflashning asosiy shartlaridan biri bu ularning boshlang'ich qiymatini aniq baholash imkonining mavjud bo'lishidir. Demak, uzoq muddatli aktivlar dastlab kirim qilinganda aktiv sifatida tan olish jarayonida baholanadi. Shundan so'ng, ulardan moliyaviy-xo'jalik faoliyatida foydalanish jarayonida bozor narxlarining o'zgarishi, inflyatsiya darajasining ortishi, texnologik jarayonlarning jadallashuvi va boshqa omillar natijasida ularning haqqoniy qiymatida o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Shu sababli, uzoq muddatli aktivlar dastlabki tan olingandan so'ng, qayta baholashni amalga oshirish orqali ularning qayta baholash sanasidagi haqqoniy qiymatida hisobga olish mumkin. Shu bilan birga, uzoq muddatli aktiv foydalanishdan chiqarilganda, uning chiqib ketish sanasidagi bahosi bo'yicha daromadlar va xarajatlar tan olingan holda hisobda aks ettiriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Gonin (2021) boshchiligida bir guruh iqtisodchi olimlar bozor munosabatlari sharoitida uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalarni baholash va qayta baholash masalalari muhim ahamiyat kasb etishini, ulardan foydalanish samaradorligini baholashning ahamiyati ortib borayotganliklari bilan izohlashadi. Shuningdek, ular milliy buxgalteriya hisobi standartlarining xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuvi ham bevosita asosiy vositalarni qayta baholash jarayonlari va ularning oqibatlarini buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan qayta ko'rish chiqish zaruratini kuchaytirishini ta'kidlashadi. Tadqiqot ishida mualliflar tomonidan asosiy vositalar qiymatini qayta baholash va qadrsizlanish testini o'tkazish tartib-taomillari ko'rib chiqiladi. Xususan, ular asosiy vositalar qiymatini baholash va ularni qayta baholash bo'yicha buxgalteriya hisobi va boshqaruv tartib-taomillarini amaliyotga joriy qilish zarurligini ta'kidlashadi.

Kulikovaning (2016) yozishicha, "Qayta baholashning asosiy maqsadi mamlakatda investitsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish edi. Biroq, investitsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, qayta baholash davrida investitsiya faolligi kuzatilmagan. Bundan tashqari, investitsiyalar yangi qurilishga emas, balki mavjud korxonalarni texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilishga yo'naltirildi. Qayta baholash natijasi asosan asosiy vositalar qiymatining oshishi bo'ldi". Muallifning yondashuvini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlab o'tish joizki, qayta baholash har doim ham investitsiya faolligining o'sishiga bevosita olib kelmaydi. Chunki, qayta baholash avvalo buxgalteriya hisobida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u uzoq muddatli aktivlar qiymatini bozor bahosiga moslashtirishga xizmat qiladi.

Ismanov (2021) uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish bo'yicha olib borgan ilmiy-tadqiqot ishida "Uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash, hisobga olish va hisobotda aks ettirish statik va dinamik usullarda amalga oshiriladi.

Statik usulga ko'ra, buxgalteriya balansini tuzishda uzoq muddatli aktivlarning o'sha paytdagi qiymati asos qilinib olinadi. Statik hisob korxonalar aktivlarini sotish paytida undan tushgan mablag'lar uning kreditorlik qarzlarni qoplashga yetarliligi yoki yetarli emasligi to'g'risida axborot beradi. Bu hisob korxonalar faoliyatining uzluksizlik tamoyiliga asoslanmaydi.

Dinamik hisob - bu muayyan paytga korxonaga kiritilgan kapitalning aylanma xarakterini balansda tannarxi bo'yicha aks ettirish usulidir. Bu hisob korxonaning uzluksiz faoliyat yuritish tamoyiliga asolanadi" deb ta'kidlaydi. Mazkur yondashuvda iqtisodchi olim tomonidan ilgari surilgan statik va dinamik usullarga asoslangan yondashuvlar uzoq muddatli aktivlarni baholash, hisobga olish va hisobotda aks ettirishning nazariy asoslarini ochib bersada, ularni dastlabki tan olishdan keyingi baholash va uning natijalarini hisobga olish masalalari bilan bog'liq ayrim muhim jihatlarni to'liq qamrab olmaydi. Fikrimizcha, statik va dinamik usullarga asoslangan ushbu yondashuvlarni qayta baholash, qadrsizlanish va

haqqoniy qiymat konsepsiyalari bilan uyg'unlashtirgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shermamatov (2026) "Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish" borasidagi tadqiqot ishida 16-BHXSga asoslangan holda quyidagi fikrlarni qayd etish bilan cheklanadi: "Uzoq muddatli aktivlarning tan olishdan keyingi baholashning ikki turi mavjud bo'lib, bular: tannarx modeli; qayta baholash modeli. Agarda korxonada qayta baholash modelidan foydalansa, unda korxonada tomonidan aktivlarni har yili qayta baholash shart emas. Korxonada tomonidan aktivlar qayta baholansa, mazkur baholash bu shu darajada tez-tez bo'lishi kerakki, hisobot kunidagi uzoq muddatli aktivlarning balans qiymati uning haqqoniy qiymatidan sezilarli darajada farq qilib qolmasligi kerak". Bunda, muallifning "Agarda korxonada qayta baholash modelidan foydalansa, unda korxonada tomonidan aktivlarni har yili qayta baholash shart emas" degan fikriga to'liq qo'shib bo'lmaydi. Chunki, uzoq muddatli aktivning balans qiymati uning haqqoniy qiymatidan sezilarli darajada farq qilmasa, uni har yili qayta baholash talab etilmaydi. Mazkur modelda asosiy mezon davriylik emas, ahamiyatlilik muhim hisoblanadi.

Rizayev (2019) intellektual mulk obyektlari hisobini tashkil etish metodologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishida "Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy va milliy amaliyotda intellektual mulk ob'ektlarini qayta baholash metodikacida yillik meyoriy tartibi ishlab chiqilmagan" ligini ta'kidlaydi. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida muallif tomonidan intellektual mulk obyektlari beshta kichik guruhlariga ajratib tasniflangan holda ularni qayta baholashning yillik indekslarini taklif qiladi. Uning fikricha, bunday yondashuv intellektual mulk obyektlari qiymatini joriy bozor bahosiga muvofiqlashtirish va asosiy faoliyat xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi.


Usmonovning (2025) yozishicha, "Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ularning boshlang'ich qiymatidan eskirish miqdorini kamaytirish orqali aniqlanadi. Vaqt o'tishi bilan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati eskirish natijasida zamonaviy asosiy vositalarning qiymatidan farqlanadi. Bu farqni tugatish uchun asosiy vositalarni ma'lum davrlarda qayta baholash amalga oshiriladi va ularning tiklash qiymati aniqlanadi. Tiklash qiymati deb asosiy vositalarni hozirgi sharoitda amal qilayotgan bahoda hisobga olish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan qurish yoki ishlab chiqarish tushuniladi". Muallif tadqiqot ishida uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalarni qayta baholash lozimligini ta'kidlasada, uni amalga oshirish mexanizmini ko'rsatib o'tmaydi. Ya'ni, asosiy vositalarni qayta baholash qaysi davrda amalga oshirilishi, qayta baholash usullari va uning natijalarini hisobga olish hamda hisobotda aks ettirish masalalariga to'xtalib o'tmaydi.

Xaydarovning (2015) fikricha, "asosiy vositalarni qayta baholash – asosiy vositalar obyektlarining tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirish hisoblanadi. Asosiy vositalar qayta baholash natijasida hisob va hisobotda joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi. Asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati qayta baholangan hollarda qayta baholash o'tkazilgan sanadagi ularning jamlangan eskirishi asosiy vositalarning dastlabki (tiklanish) qiymati o'zgarishining tegishli indekslariga tuzatiladi hamda keyingi hisoblanadigan eskirish qayta baholangan qiymati hisobidan amalga oshiriladi". Bunda muallif buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlarida belgilangan talablar asosida umumiy asoslarda o'z yondashuvini keltirib o'tadi. Fikrimizcha, mazkur yondashuvda muallif tomonidan qo'llanilgan "tiklash qiymati", "dastlabki qiymat" tushunchalarini "boshlang'ich qiymat" sifatida, "joriy qiymat" tushunchasini esa, "haqqoniy qiymat" sifatida bayon qilish, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan tushunchalar bilan bir xil talqinda qo'llanilishi ta'minlangan bo'lar edi.

Raximova (2021) "16-son BHXSda mulk, zavod, mashina va asbob-uskunalarini davomiy baholash uchun ikkita modeldan foydalanishni ko'zda tutadi: - boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olish modeli; - qayta baholangan qiymati bo'yicha hisobga olish metodi" deb ta'kidlaydi. Shuningdek, muallif uzoq muddali aktivlar sifatida tan olinadigan mulk, zavod, mashina va

asbob-uskunalarni dastlabki tan olingandan so'ng, ularni qayta baholash jarayonini olti bosqichda amalga oshirishni taklif etadi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan ishlarni tasniflab ko'rsatib o'tadi. Biroq, 16-son BHXSda belgilangan modellarni milliy hisob tizimiga qo'llash, 5-sonli BHMSda asosiy vositalarni tan olishdan keyingi baholash bo'yicha belgilangan talablarga uyg'unlashtirish, qayta baholash bosqichlarini amalga oshirish mexanizmi muallif tomonidan yetarli darajada yoritib berilmagan.

1-rasmda uzoq muddatli aktivlarni baholash va uning natijalarini hisobga olish algoritmi keltirilgan bo'lib, bunda aktivlarni tan olingandan keyingi baholash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu bosqichda uzoq muddatli aktivlarning balans qiymati, ularning amortizatsiya jarayonlari, ehtimoliy qadrsizlanish va boshqa omillar hisobga olingan holda real iqtisodiy holatiga moslashtiriladi. Agarda uzoq muddatli aktivlar tan olingandan keyingi baholash tizimili ravishda amalga oshirilmasa, ya'ni, faqat boshlang'ich qiymati saqlab qolinsa, foydali xizmat muddati o'tishi bilan ularning balansdagi qiymati haqqoniy qiymatidan sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Bu esa, buxgalteriya hisobi subyektining moliyaviy holati va moliyaviy hisobotning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, uzoq muddatli aktivlarni tan olingandan keyingi baholash doirasida qayta baholash, qadrsizlanishini tekshirish va amortizatsiyani to'g'ri hisoblash asosida ularning qiymatini doimiy ravishda yangilab borish talab qilinadi.



1-rasm. Uzoq muddatli aktivlarni baholash va uning natijalarini hisobga olish algoritmi

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini inobatga olgan holda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va milliy amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash jarayonini tashkil etish va o'tkazishning aniq tashkiliy-uslubiy asoslari yetarli darajada shakllantirilmagan. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy amaliyotda buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan bu jarayon ko'p hollarda mustaqil ravishda belgilangan holda tashkil etilib, amalga oshirilmoqda. Biroq, mazkur jarayonning tashkiliy-uslubiy asoslari aksariyat hollarda buxgalteriya hisobi subyektlari hisob siyosatida mustahkamlanmaganligi kuzatilmoqda. Fikrimizni tasdig'ini, tadqiqot obyekti bo'lgan "Taxiatash donmahsulotlari" AJ va "Navoiyazot" AJlarda uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirish hamda uning natijalarini hisobda aks ettirish masalalari yetarli darajada yoritib berilmagan. Jumladan, "Taxiatash donmahsulotlari" AJ hisob siyosatida uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va ijra hisobiga doir BHMSlarda belgilangan umumiy talablar belgilangan xolos. Bu esa, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash jarayonini amalga oshirishda yagona yondashuvning shakllanmaganligiga, moliyaviy hisobot axborotlarining taqqoslanuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash jarayonini samarali tashkil etish va o'tkazish maqsadida uning tashkiliy-uslubiy asoslarini aniq belgilash asosida yagona yondashuvni shakllantirish va uni buxgalteriya hisobi subyektining hisob siyosatiga kiritgan holda mustahkamlab, amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Fikrimizcha, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash jarayonini uchta o'zaro bog'liq "Qayta baholash", "Baholash natijalari asosida qayta

hisoblash” va “Qayta baholash natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish” bosqichlariga ajratgan holda tashkil etish, uni tizimli va amaliyotda qo'llash uchun qulay deb hisoblaymiz.


Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashni amalga oshirish algoritmi, qayta baholash jarayonini tizimlashtirish, uning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga, uzoq muddatli aktivlarni haqqoniy qiymatda aks ettirish va ularga amortizatsiya hisoblashning aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'z navbatida, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhiga to'xtaladigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi birgina asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha minimal talablar 5-sonli “Asosiy vositalar” nomli BHMSda, nomoddiy aktivlarni qayta baholash bo'yicha minimal talablar esa, 7-sonli “Nomoddiy aktivlar” nomli BHMSda belgilangan. Xususan, 5-sonli BHMSda belgilangan talablarga ko'ra, “Haqqoniy qiymati ishonchli tarzda baholanishi mumkin bo'lgan asosiy vosita aktiv sifatida tan olinganidan so'ng, keyingi jamg'arilgan eskirish va qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlarni chegirgan holda, qayta baholash sanasidagi haqqoniy qiymatni aks ettiradigan qayta baholangan qiymatda hisobga olinishi lozim. Hisobot davri oxirida asosiy vositaning balans qiymati uning haqqoniy qiymatidan muhim (jiddiy) farqlanmasligi uchun qayta baholash yetarli darajada muntazam amalga oshirilishi lozim”. Biroq, mazkur belgilangan talabda keltirilgan “asosiy vositaning balans qiymati uning haqqoniy qiymatidan muhim (jiddiy) farqlanmasligi” jumlasini yetarlicha asoslanmagan. Ya'ni, asosiy vositaning balans qiymati uning haqqoniy qiymatidan muhim farqlanmaslik chegarasi aniq belgilanmagan. Shu sababli, buxgalteriya hisobi subyektlari o'zlari hisob siyosatida asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha talablarni belgilashda, mustaqil ravishda mazkur chegarani aniq belgilab quyishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu albatta, asosiy vositalarni qayta baholashni amalga oshirish davriyligini belgilash uchun ham asos bo'ladi. Chunki, asosiy vositani qayta baholash davriyligi bevosita uning haqqoniy qiymatidagi o'zgarishlarga bog'liq hisoblanadi.

Shuningdek, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlarida asosiy vositalarni qayta baholash usullari keltirilgan bo'lib, buxgalteriya hisobi subyekti o'z hisob siyosatida asosiy vositalariga nisbatan tanlangan usulni belgilashi va uni qayta baholashni amalga oshirishda qo'llashi lozim. Jumladan, 5-sonli BHMS va 16-sonli BHXSlarda belgilangan talablarga ko'ra, asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin (2-rasm).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2-rasmda asosiy vositalarni tan olishdan keyingi baholash usullarining tasnifi keltirilgan bo'lib, unda buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan asosiy vositalarni dastlabki tan olishdan keyingi baholashda qo'llaniladigan yondashuvlar ko'rsatib o'tilgan.



2-rasm. Asosiy vositalarni tan olishdan keyingi baholash usullari

Manba: buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan.

Jumladan, agar ular “Boshlang‘ich qiymat modeli”dan foydalansa, asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatda, “Qayta baholash modeli” qo‘llanilgan taqdirda qayta baholangan qiymatda hisobga olish tartibi aks ettirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot obyekti hisoblangan “Taxiatash donmahsulotlari” AJ 2024 - 2025-yillar davomida asosiy vositalarni qayta baholash amaliyotini amalga oshirmagan. Bunday holat, yana bir tadqiqot obyekti bo‘lgan “Navoiyazot” AJ faoliyatida ham kuzatiladi. Mazkur holat, aksiyadorlik jamiyatlarida hisobot sanasida asosiy vositalarning balans qiymati, ularning haqqoniy qiymatidan sezilarli darajada farqlanmasligi bilan izohlanadi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, 3-rasmda keltirilgan qayta baholash usullarining qo‘llanilishi va uning natijalarini hisobga olishning aniq amaliy tartibi buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlarida batafsil bayon etilmagan. Xususan, 5-sonli BHMSda asosiy vositaning qiymati qayta baholash natijasida oshsa, bu oshgan summa daromad sifatida emas, balki 8510 - “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotida rezerv kapitalida hisobga olinadi. Qayta baholash natijasida asosiy vosita qiymatining kamayishi esa, ushbu asosiy vositaning oldingi hisobot sanalarida amalga oshirilgan qayta baholash natijasida 8510 - schyotida hisobga olingan ortgan summasi atrofida kamayishi belgilangan. Biroq, undan ortiq bo‘lgan kamayish summasining buxgalteriya hisobida qanday tartibda aks ettirilishi yetarlicha yoritilmagan. Shuningdek, 3-rasmda keltirilgan asosiy vositalarni qayta baholash usullarida qadrsizlanishdan jamg‘arilgan zararlar summasini chegirish zarurligi qayd etilgan bo‘lsada, qadrsizlanish zararini hisobga olishning aniq uslubiy tartibi keltirib o‘tilmagan. Shuningdek, 21-sonli BHMS da asosiy vositalarning jamg‘arilgan eskirishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun alohida schyotlar nazarda tutilgan bo‘lsada, asosiy vositalar qadrsizlanishidan kelib chiqadigan zararlarni jamg‘arib borish uchun maxsus schyotlar belgilanmagan. Natijada, amalda asosiy vositalarni qayta baholash jarayonida qadrsizlanishdan yuzaga keladigan yo‘qotishlarni alohida tartibda hisobga olish va ularni analitik jihatdan ajratib hisobini yuritish imkoniyati cheklanib qolmoqda. Shu bois, uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qadrsizlanishidan jamg‘arilgan zararlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun “Ishchi schyotlar” rejasiga quyidagi schyotlarni kiritishni taklif qilamiz.

Yuqoridagi taklif etilgan schyotlarning amaliyotga joriy qilinishi, milliy hisob tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg‘unlashtirish hamda uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiruvchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar to‘g‘risida haqqoniy axborotlarni moliyaviy hisobotda aks ettirish imkonini beradi.

Endi, tadqiqot natijalariga tayangan holda asosiy vositalarni qayta baholash amaliyotida qayta baholash usullarining qo‘llanilishi va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. “Boshlang‘ich qiymat modeli”. Mazkur modelda asosiy vosita dastlab tan olingandan so‘ng, jamg‘arilgan eskirish va qadrsizlanishdan jamg‘arilgan zararlar chegirilgan holdagi boshlang‘ich qiymat asosida hisobga olinadi.

Aytaylik, “Navoiyazot” AJ 2025-yil 1-martda yangi turdagi uskuna xarid qildi. Uskunani xarid qiymati va uni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar 1 200 000,0 ming so‘mni tashkil qilgan. AJ tomonidan uskunaning foydali xizmat muddati 10 yil deb belgilandi. Foydali xizmat muddati yakunida ahamiyatli summada tugatish qiymati kutilmayapdi. AJ tomonidan to‘g‘ri chiziq usulida eskirish hisoblash belgilangan. 2025-yil 31-dekabrda AJ uskunada qadrsizlanish alomatlari bor deb baholadi va qadrsizlanishdan zarar 30 000,0 ming so‘m degan xulosaga kelgan.

Mazkur uskunani “Boshlang‘ich qiymat modeli”da qayta baholash va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1). Uskunaga 2025-yilning 10 oyi (01.03.25-31.12.25) uchun 100 000,0 (1 200 000,0 :

10 : 10/12) ming so‘m hisoblangan eskirish summasi quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti – 100 000,0 ming so‘m;

Kredit 0230 – “Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi” schyoti – 100 000,0 ming so‘m.

2). 2025-yil 31-dekabr sanasiga 30 000,0 ming so‘m uskunani qadrsizlanishidan zararni tan olish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9430 – “Boshqa operatsion xarajatlar” schyoti – 30 000,0 ming so‘m;

Kredit 0290 – “Asosiy vositalarni qadrsizlanishidan jamg‘arilgan zararlar” (uskuna) – 30 000,0 ming so‘m.

3). 2025-yil 31-dekabr sanasiga “Boshlang‘ich qiymat modeli”da uskunaning balans qiymati 1 070 000,0 (1 200 000,0 – 100 000,0 – 30 000,0) ming so‘mni tashkil qiladi va mazkur summa moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

4). MHXSda belgilangan talablarga ko‘ra, oldin qadrsizlangan uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha joriy bozor sharoiti yaxshilangan taqdirda, ularning balans qiymatini tiklashga ruxsat beriladi. Ammo, tiklanadigan qiymat uzoq muddatli aktivning qadrsizlanish mavjud bo‘lmagan holatda shakllanadigan qoldiq qiymatdan oshmasligi lozim. Masalan, 2026-yil 31-dekabr sanasiga uskunaning mustaqil baholovchi tomonidan haqqoniy qiymati 1 000 000,0 ming so‘m sifatida baholandi. Mazkur qiymat uskunaning 951 111,0 (1 200 000,0 – 100 000,0 – 30 000,0 – 118 889,0) ming so‘m qoldiq qiymatidan yuqori hisoblanadi. Demak, yuqoridagi qoidaga muvofiq ushbu holatda uskunaning balans qiymatini tiklash zarurati paydo bo‘ldi. Ya‘ni, uskuna bo‘yicha qadrsizlanish mavjud bo‘lmaganda, 2026-yil 31-dekabr sanasiga uning qoldiq qiymati 981 111,0 (1 200 000,0 – 220 000,0) ming so‘mga teng bulardi. Bundan ko‘rinadiki, uskunaning balans qiymatini maksimal 980 000,0 ming so‘mgacha tiklash mumkin. Mazkur holatda, uskunaning tiklanadigan balans qiymati bilan qoldiq qiymati o‘rtasidagi farq 30 000,0 (981 111,0 – 951 111,0) ming so‘m “Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot”da daromad sifatida tan olinadi. Mazkur operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0130 – “Mashina va asbob-uskunalar” schyoti – 30 000,0 ming so‘m;

Kredit 9430 – “Boshqa operatsion xarajatlar” schyoti – 30 000,0 ming so‘m.

2. “Qayta baholash modeli”. Ushbu usulga muvofiq asosiy vosita obyekti keyingi jamg‘arilgan eskirish va qadrsizlanishdan keyingi jamg‘arilgan zararlarni chegirgan holda, qayta baholash sanasidagi haqqoniy qiymatni aks ettiradigan qayta baholangan qiymatda hisobga olinadi.

Misol uchun, “Navoiyazot” AJ 2023-yil 1-yanvarda 1 500 000,0 ming so‘mga bino sotib oldi. Foydali xizmat muddati 50 yil belgilandi. AJ binoga amortizatsiya hisoblashning to‘g‘ri chiziq usulini qo‘llaydi va uni qayta baholangan qiymat bo‘yicha hisobga oladi.

Ushbu binoni “Qayta baholash modeli”da qayta baholash va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. 2023-yil uchun binoga eskirish hisoblash va qayta baholash quyidagicha hisob-kitob qilinadi hamda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi:

2023-yil uchun eskirish summasi = 1 500 000,0 ming so‘m : 50 yil = 30 000,0 ming so‘m.

2023-yil 31-dekabr sanasiga qayta baholashdan oldin hisoblangan eskirish summasi hisobga olinganda:

Debet 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti – 30 000,0 ming so‘m;

Kredit 0220 – “Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi” schyoti – 30 000,0 ming so‘m.

Shunda, 2023-yil 31-dekabr holatiga binoning qoldiq qiymati (qayta baholashdan oldin) 1 470 000,0 (1 500 000,0 – 30 000,0) ming so‘mni tashkil qiladi.

Aytaylik, 2023-yil 31-dekabr holatiga mustaqil baholovchi tomonidan binoning haqqoniy qiymati 1 480 000,0 ming so‘m etib belgilandi. Bundan ko‘rinadiki, qayta baholash natijasida binoning qiymati 10 000,0 (1 480 000,0 – 1 470 000,0) ming so‘mga oshgan. Mazkur

summa buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 0120 – “Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar” schyoti – 10 000,0 ming so‘m;

Kredit 8510 – “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” – 10 000,0 ming so‘m.

Demak, binoning 2023-yil 31-dekabr holatiga qoldiq qiymati (qayta baholashdan keyin) 1 480 000,0 (1 470 000,0 + 10 000,0) ming so‘mga teng bo‘ladi.

2. 2024-yil uchun binoga eskirish hisoblash va qayta baholash quyidagicha hisob-kitob qilinadi hamda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi:

2024-yil uchun eskirish summasi = 1 480 000,0 ming so‘m : 49 yil = 30 204,0 ming so‘m.

2024-yil uchun binoga hisoblangan 30 204,0 ming so‘m eskirish summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti – 30 204,0 ming so‘m;

Kredit 0220 – “Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi” schyoti – 30 204,0 ming so‘m.

Demak, hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yil 31-dekabr holatiga binoning qoldiq qiymati (qayta baholashdan oldin) 1 449 796,0 (1 480 000,0 – 30 204,0) ming so‘mga teng bo‘ladi.

2024-yil 31-dekabr sanasiga mustaqil baholovchi tomonidan binoning haqqoniy qiymati 1 400 000,0 ming so‘m sifatida belgilandi. Demak, qayta baholash natijasida binoning qiymati 49 796,0 (1 400 000,0 – 1 449 796,0) ming so‘mga kamaygan. Ushbu kamayish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1). 2023-yil 31-dekabr holatiga binoni qayta baholash natijasida 10 000,0 ming so‘m zaxira shakllangan bo‘lib, 2024-yil 31-dekabr sanasida binoni qayta baholash natijasida qiymatining 49 796,0 ming so‘mga kamayishi, avvalo ushbu zaxira hisobidan qoplanadi va u buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 8510 – “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” – 10 000,0 ming so‘m;

Kredit 0120 – “Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar” schyoti – 10 000,0 ming so‘m.

Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur summa “Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot”ning boshqa umumlashgan daromad qismida aks ettiriladi.

2). 2024-yil 31-dekabr sanasida qayta baholash natijasida bino qiymatining kamayishi bo‘yicha shakllantirilgan zaxira hisobidan qoplanmagan qismi 39 796,0 (49 796,0 – 10 000,0) ming so‘m, binoning qadrsizlanishidan zarar sifatida tan olinadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9430 – «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti – 39 796,0 ming so‘m;

Kredit 0290 – “Asosiy vositalarni qadrsizlanishidan jamg‘arilgan zararlar” (uskuna) – 39 796,0 ming so‘m.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, binoning 2024-yil 31-dekabr holatiga qoldiq qiymati (qayta baholashdan keyin) 1 400 000,0 (1 480 000,0 – 30 204,0 – 39 796,0 – 10 000,0) ming so‘mga teng bo‘ladi.

3. 2025-yil uchun binoga eskirish hisoblash va qayta baholash natijalari quyidagicha hisobga olinadi:

2025-yil uchun hisoblangan eskirish summasi 29 167,0 (1 400 000,0 : 48 yil) ming so‘mni tashkil etadi va u buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti – 29 167,0 ming so‘m;

Kredit 0220 – “Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi” schyoti – 29 167,0 ming so‘m.

2025-yil 31-dekabr sanasiga binoning qoldiq qiymati (qayta baholashdan oldin) 1 380 833,0 (1 449 796,0 – 29 167,0 – 39 796,0) ming so‘mni tashkil qiladi. Shuningdek, mazkur sanada mustaqil baholovchi tomonidan binoning haqqoniy qiymati 1 450 000,0 ming

so'm sifatida baholandi. Bundan ko'rinadiki, 2025-yil 31-dekabr sanasiga binoning haqqoniy qiymati (1 450 000,0 ming so'm) va uning qoldiq qiymati (1 380 833,0) o'rtasidagi 69 167,0 (1 450 000,0 – 1 380 833,0) ming so'mga teng bo'ladi.

Mazkur holatda, 16-sonli BHXS talablariga muvofiq binoni qayta baholash natijasida, uning balans qiymati oshgan taqdirda, mazkur oshgan summa dastlab oldin foyda yoki zararlarda tan olingan mazkur bino bo'yicha qiymatning kamayishi (qadrsizlanish) summasini qoplash doirasida foyda yoki zararlarda aks ettirilishi lozim. Shundan so'ng, oshgan summaning qolgan qismi boshqa umumlashgan daromad tarkibida tan olinib, xususiy kapitalning "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida jamg'ariladi. Jumladan:

1). Binoni qayta baholash natijasida, oldin qadrsizlanishdan zarar sifatida tan olingan 39 796,0 ming so'm tiklanadigan summa hisobga olinganda:

Debet 0290 – "Asosiy vositalarni qadrsizlanishidan jamg'arilgan zararlar" (uskuna) schyoti – 39 796,0 ming so'm;

Kredit 9430 – "Boshqa operatsion xarajatlar" schyoti – 39 796,0 ming so'm.

2). Binoning oldingi qadrsizlanishidan zarar sifatida tan olingan tiklanadigan summadan ortiq qismi 29 371,0 (69 167,0 - 39 796,0) ming so'm quyidagicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi:

Debet 0120 – "Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar" schyoti – 29 371,0 ming so'm;

Kredit 8510 – "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti – 29 371,0 ming so'm.

Natijada, 2025-yil 31-dekabr holatiga binoning balans qiymati (qayta baholangandan so'ng) 1 450 000,0 (1 420 629 + 29 371,0) ming so'mga teng bo'ladi. O'z navbatida, keyingi hisobot sanalarida ham bino bo'yicha "Qayta baholash modeli" qo'llanilgan holda uning qiymatidagi o'zgarishlar yuqorida bayon qilingan tartibga muvofiq ravishda buxgalteriya hisobida aks ettirib boriladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobi subyektining hisob siyosatida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq holda uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashning davriyligi, qo'llaniladigan usullari, qayta baholash jarayonini tashkil etish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi aniq belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Albatta, bunday yondashuv moliyaviy hisobotda taqdim etiladigan axborotlarning haqqoniyligi, ishonchligi va shaffoqligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

uzoq muddatli aktivlar hisobini to'g'ri yuritish va ularga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirishni ta'minlash maqsadida ularni baholash jarayonlarini samarali tashkil etish zarurati asoslandi. Shu bilan birga, uzoq muddatli aktivlarni baholash jarayonlarini buxgalteriya hisobida tizimli ravishda aks ettirish uchun ularni "Dastlabki tan olish, baholash va hisobga olish, "Tan olishdan keyingi baholash va hisobga olish" va "Tan olishni to'xtatish, baholash va hisobdan chiqarish" bosqichlariga ajratgan holda yuritish tavsiya qilindi.

uzoq muddatli aktivlarni dastlabki tan olishdan keyingi qayta baholash jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan "Qayta baholash", "Baholash natijalari asosida qayta hisoblash" va "Qayta baholash natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish" bosqichlariga ajratilgan holda tasniflandi hamda uni amalga oshirish algoritmi ishlab chiqildi. Fikrimizcha, bunday yondashuv qayta baholash jarayonini tizimlashtirish va uning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qadrsizlanishini hisobga olish maqsadida alohida 0290 – "Asosiy vositalar qadrsizlanishidan jamg'arilgan zararlar" va 0590 – "Nomoddiy aktivlar qadrsizlanishidan jamg'arilgan zararlar" ishchi schyotlarini ochish taklif etildi. Bu

albatta, milliy buxgalteriya hisobi tizimini MHXS talablariga uyg'unlashtirish, shuningdek, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan axborotlarning ishonchliligi va ahamiyatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

16-sonli BHXS talablariga muvofiq, asosiy vositalarni tan olishdan keyingi baholash usullari tasniflangan holda ularni qayta baholash jarayonida qo'llash tartibi "Navoiyazot" AJ misolida amaliy jihatdan yoritib berildi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga tayangan holda buxgalteriya hisobi subyekting hisob siyosatida uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashning davriyligi, qo'llaniladigan usullari, qayta baholash jarayonini tashkil etish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdurasulov, J. (2000) 'Asosiy foydalanishga doir daromadlar hisob siyosatida ochilishi bo'lgan jihatlar xususida', Soliq to'lovchining jurnali, №6, pp. 23–25.

Abdurasulov, J. (2022) 'Korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy tahlilning o'rni', Moliya va hisob, №2, pp. 12–17.

Astanakulov, O.T. (2020) Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 82 b.

Aydullaev, R. (2020) 'Uzoq muddatli aktivlarni baholash va hisobga olishda yuzaga kelayotgan muammolar', Milliy iqtisodiyot, №3, pp. 53–57.

Ergashev, A.B. (2019) 'Buxgalteriya hisobining axborot funksiyasi', Hisob va audit muammolari, №1, pp. 27–31.

Gonin, V., Panchenko, E., Kibireva, E. and Nomokonova, O. (2021) 'Approaches to the valuation and revaluation of fixed assets according to Russian and international standards', Transbaikal State University Journal, 27, pp. 87–98. doi:10.21209/2227-9245-2021-27-3-87-98.

Hamidov, U. (2021) 'Uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanishning iqtisodiy ahamiyati', Iqtisodiy tahlil jurnali, №4, pp. 45–49.

International Accounting Standards Board (IASB) (2023) IAS 1 Presentation of Financial Statements.

International Accounting Standards Board (IASB) (2023) IAS 16 Property, Plant and Equipment.

Ismanov, I.N. (2021) Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent: Klassik, 40 b.

Kovalev, V.V. (2018) Finansovyy analiz: Upravleniye kapitalom. Moskva: Finansy i statistika.

Kudbiyev, D. (2023) 'Asosiy vositalarni ijaraga berishning uslubiy tamoyillari va ularni hisobga olish', Nazariy va amaliy tadqiqot jurnali, 2(1), pp. 57–62.

Kulikova, L.I. (2016) 'Istoriya provedeniya pereootsenok osnovnykh sredstv v Rossii: nakoplenyy opyt, rezultaty i syurprizy', Istoriya evolyutsii razvitiya ucheta, analiza i audita, №1, pp. 129–141.

Mavlyanova, D.M. (2020) Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 56 b.

Maxmudova, N.D. (2025) Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda intellektual mulk ob'ektlari hisobi va tahlilini takomillashtirish. 08.00.08 – "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" ixtisosligi bo'yicha PhD dissertatsiyasi. Toshkent.

Nazarov, K.K. (2020) Korxonalar iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

Nurmatov, O.T. (2019) 'Er qa'ridan foydalanuvchi korxonalarda nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish muammolari', Moliya va bank ishi, №1, pp. 63–69.

O'zbekiston Respublikasi (2016) "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-404-son,

13-aprel.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2023) Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2024) 21-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Available at: <https://lex.uz/docs/7282737>

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2024) 5-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Asosiy vositalar". Available at: <https://lex.uz/docs/7058293>

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2024) 7-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Nomoddiy aktivlar". Available at: <https://lex.uz/docs/7058929>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida Farmon, PF-60-son, 28-yanvar.

Ochilov, I.K. (2007) Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 148 b.

Rahimova, G. (2021) 'Xalqaro standartlarga muvofiq mulk, zavod, mashina va asbob-uskunalarini davomiy qayta baholash natijalari hisobi', Jamiyat va innovatsiyalar, 3, pp. 112–120.

Raximova, G.M. (2025) Asosiy vositalar hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 82 b.

Rizaev, N.K. (2019) Intellektual mulk ob'ektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. 08.00.08 – "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.

Rizayev, N.K. (2019) Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. DSc ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 20 b.

Saviskaya, G.V. (2020) Analiz khozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya.

Shakarov, A.G. (2000) Asosiy vositalar (turlil mulkchilik shakllarida) hisobi va nazoratini tashkil etish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent moliya instituti.

Shermamatov, S.X. (2026) Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 14 b.

Suyunov, Yo.B. (2022) Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy investitsiyalar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 56 b.

Tashnazarov, S.N. (2017) 'Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №6.

Usmonov, F.O. (2025) Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 76 b.

Xaydarov, M.T. (2015) 'Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni baholash hamda qayta baholash hisobini yuritish tartib-qoidalar', Iqtisod va moliya, №7, pp. 57–62.

Zavalishina, I.A. (2019) Sovremennyy bukhgalterskiy uchet. Sankt-Peterburg.